

ODDIY QIZDAN MILLIY RAMZGACHA: JANNA D'ARK VA O'RTA ASR FRANSIYASINING QAYTA TUG'ILISHI

Xolmurodov Dilshod Rashidovich

Jizzax davlat pedagogika universiteti dotsenti,
tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD),

Abdusaitov Kamronbek Baxtiyor o'g'li

Jizzax davlat pedagogika universiteti
Tarix fakulteti 3-bosqich talabasi.

Annotatsiya. Ushbu maqolada Janna d'Ark (1412–1431) Fransiya tarixining eng mashhur va fojiali qahramoni sifatida, oddiy dehqon qizi bo'lishiga qaramay, milliy birlikni tiklash va strategik g'alabalarga erishishda tutgan roli tahlil qilinadi. Uning Orlean mo'jizasi orqali qirol Karl VII ni Reymsda toj kiyishiga yordam berishi va harbiy jasorati bilan Fransiya taqdirini o'zgartirishi yoritiladi. Shuningdek, maqolada 1431-yilda siyosiy va diniy sabablarga ko'ra qatl qilinishi, keyinchalik oqlanib, avliyo deb e'lon qilinishi muhokama qilinadi. Jannaning hayoti shaxsiy iymon, jasorat va milliy ruh timsoli sifatida tarix, gender tengligi va adolat masalalarida dolzarbligi ahamiyatlidir.

Kalit so'zlar: Janna d'Ark, Fransiya, milliy birlik, Orlean mo'jizasi, Karl VII, toj kiyish, harbiy jasorat, Yuz yillik urush, muqaddas avliyolar, Ruan, papa Piy X va Benadikt XV, Mark Tven va Bernard Shou.

Fransiya tarixining eng mashhur va ilhomlantiruvchi qahramonlaridan biri bo'lgan Janna d'Arkning hayoti va faoliyatini rang-barang va qiziqarlidir. U oddiy dehqon oilasidan chiqqan bo'lsa-da, milliy birlikni tiklash va tarixiy g'alabalarga erishishda muhim rol o'ynadi. Uning jasorati, shaxsiy iymoni va siyosiy adolatsizliklarga qarshi kurashi hozirgi kunlargacha ilm ahli tomonidan ko'p yoqlama tahlil qilinadi.

Janna 1412-yilda Fransiyaning Bar va Lotaringiya gersogliklari chegarasidagi Domremy qishlog'ida oddiy dehqon oilasida tug'ildi. Uning otasi Jek d'Ark va onasi

Izabella Romey kambag'al, ammo hurmatli dehqonlar edilar.[1]. Janna o'qishni bilmagan, ammo chuqur diniy tarbiya olgan va ip yigirish va chorva boqishni yaxshi bilardi. Oddiy qishloq qizi edi va hech kim uning taqdiri qanday bo'lishini tasavvur ham qilolmas edi. O'sha paytda Fransiya dahshatli holatda edi. Yuz yillik urush (1337-1453) Fransiya va Angliya o'rtasida davom etardi. 1415-yildagi Azenkur jangi halokatli bo'lgan edi - fransuz ritsarlari inglizlar tomonidan tor-mor qilingan. Burgundiya gertsogligi inglizlar bilan ittifoq tuzgan va Shimoliy Fransiya inglizlar qo'lida edi. Parijdan Reymsgacha bo'lgan hududlar dushman nazoratida edi.

Fransiya qiroli Karl VII "Burj qiroli" deb masxara qilinardi - u hatto to'liq toj ham kiyimagan edi, chunki Reymshahri (qirollar an'anaviy tojga kiyiladigan joy) inglizlar qo'lga o'tgan edi. 1425-yilda, 13 yoshida, Janna birinchi marta vahiy ovozlarni eshitdi. U o'z sudida aytishicha, bu ovozlari muqaddas avliyolar - Arxangel Mixail, Muqaddas Katerina va Muqaddas Margarita edilar. Ular unga aytdilarki, Fransiyaning inglizlardan qutqarish va qirolni Reymstda toj kiyishiga yordam berish kerak. Dastlab Janna buni sir tutdi - kim bir dehqon qizga ishonardi? Ammo ovozlari tobora kuchliroq bo'lib bordi va u o'z vazifasini bajarish kerakligini his qildi. 1429-yilda, 17 yoshida, Janna jasorat qilib, mahalliy qo'mondon Robert de Boutrikord oldiga bordi va unga Karl VII ga yetkazishni so'radi[5].

Dastlab u masxara qilindi va qaytarildi. Ammo Janna qaytib keldi va bu safar u qishloqdoshlaridan bir nechtasini o'zi bilan olib keldi. Janna shunday ishonch va jasorat bilan gapirdiki, Boutrikord oxir-oqibat uni Chinon qal'asiga – Karl VII joylashgan joyga - yubordi. Chinonga 11 kunlik xavfli sayohat dushman hududlaridan o'tishi kerak edi. Janna erkak kiyimida yurdi - bu xavfsizroq edi va keyinchalik uning sudida asosiy ayblovlardan biriga aylandi. Chinonda u Karl VII bilan uchrashdi. Ma'lumotlarga qaraganda, Karl VII uni tekshirish uchun zodagonlar orasiga yashirindi va boshqa odamni taxtga o'tqazdi, ammo Janna darhol haqiqiy qirolni tanidi va uning oldiga bordi.

Karl VII va uning maslahatchilari shubhalanayotgan edilar. Ular Jannani cherkov ruhoniylari va rohibalar yordamida tekshirishdi - u jodugarmidi, yoki yolg'onchimidi?

Tekshiruvlar shuni ko'rsatdiki, Janna oddiy, samimiy va diniy qiz. Eng muhimi, u Orleanga qo'shin yuborish kerakligini aytdi - bu shahar inglizlar tomonidan qamalda edi va agar u qulasa, janubiy Fransiya ham yo'qotilardi. Karl VII unga

kichik armiya berdi va uni Orleanga yubordi. Bu ajoyib xavf edi - agar Janna muvaffaqiyatsizlikka uchrasaa, bu qirolning obro'sini butunlay yo'q qilardi. Ammo Karl VII umidsiz edi va bu so'nggi imkoniyat edi. Jannaga oq zirh va bayroq berildi - u qilichni faqat ta'sir uchun ko'tarardi, lekin hech qachon odam o'ldirmagan.

1429-yil 29-aprelda Janna Orleanga yetib keldi. Shahar olti oy davomida qamalgan edi va aholi umidsiz edi. Ammo Jannaning kelishi hamma narsani o'zgartirdi. Fransuz askarlari ilhomlandi - ular bu qiz Xudoning elchisi deb ishonishdi. Janna oldinga otildi va askarlarga jasorat berdi. U hujumlarda ishtirok etdi va bir marta o'qdan yaralangan bo'lsa ham, qaytib kelib davom etdi. 9-mayda, faqat 10 kun ichida, Orlean ozod qilindi! Bu Yuz yillik urushdagi birinchi katta fransuz g'alabasi edi. "Orlean mo'jizasi" deb ataldi va Janna "Orlean qizi" nomini oldi.

Butun Fransiya bu xabarni eshitdi va umid tikladi. Janna to'xtamadi. U Reymsga yo'l ochish uchun bir qator janglarni boshladi. Patay jangi (18-iyun) yana bir ajoyib g'alaba bo'ldi - ingliz qo'shinlari parchalandi. Yo'l Reymsga ochildi va 17-iyul 1429-yilda Karl VII rasmiy ravishda Reys saroyida toj kiydi. Janna uning yonida, o'z bayrog'i bilan turdi. U o'z vazifasini bajarib bo'ldi deb o'yladi. Ammo urush tugamagan edi. Janna Parijni qaytarib olishni xohladi, ammo Karl VII va uning maslahatchilari ikkilanishdi. Ular Burgundlar bilan tinchlik muzokaralarini davom ettirmoqchi edilar[4].

Jannaning harbiy yondoshuv siyosiy rejalar bilan ziddiyat tuzdi. U Parijga hujum qildi, ammo muvaffaqiyatsiz bo'ldi va oyog'idan yaralandi. 1430-yil 23-mayda Kompen shahri yonida Janna asir olindi. Jang paytida shahar darvozasi yopildi va Janna dushman qo'lida qoldi. Uni Burgundlar tutdilar va keyin 10,000 frank oltin evaziga inglizlarga sotdilar. Bu xiyonat edi, Karl VII uni qutqarish uchun hech narsa qilmadi, garchi u Jannaning yordami bilan qirol bo'lgan bo'lsa ham. Inglizlar Jannani

cherkov sudiga berdilar. Ular uni jodugarlik va bid'atda aybladilar. Sud Ruanda bo'lib, inglizlar nazorati ostida edi.

Bosh sudya Pier Kashon - inglizlar tarafdori bo'lgan burgund yepiskopi edi. Sudning natijasi oldindan ma'lum edi. Sud jarayoni 1431-yil yanvar-mayda davom etdi. Janna o'zini ajoyib qilib himoya qildi - savodsiz qiz cherkov olimlarining murakkab savollariga donolik bilan javob berdi. Masalan, undan so'rashganda: "Sen Xudo inoyatida ekanligingni bilasanmi?", u shunday javob berdi: "Agar men jodugar bo'lsam, Xudo meni unga qo'ysin; agar talab bo'lsa boraman, Xudo meni unda sinasin". [2]. Bu savol tuzoq edi - agar u "ha" desa, u takabburlikda ayblangan bo'lardi, "yo'q" desa, u o'zini aybli deb tan olgan bo'lardi. Asosiy ayblovlardan biri erkak kiyimi kiyish edi.

O'rta asrlar cherkov qonuniga ko'ra, ayol erkak kiyimida yurishi gunoh edi. Janna aytdiki, u harbiy xizmatda va qamoqda xavfsizlik uchun erkak kiyimini kiyadi. Ammo bu ayblovlar davom ettirildi. Dastlab Jannaga qo'rqitish orqali tan oldirishdi. Uni olovga bog'langan ustunga olib borishdi va uni yoqish bilan tahdid qilishdi. Qo'rqib ketgan Janna ba'zi ayblovlarga imzo qo'ydi va erkak kiyimlaridan voz kechishga va'da berdi. Ammo bir necha kundan keyin u bu "tan olganini"ni bekor qildi va erkak kiyimini yana kiydi – ma'lumotlarga qaraganda, qamoqxona qo'riqchilari uning ayol kiyimlarini o'g'irlashgan va u erkak kiyimini kiyishga majbur bo'lgan.

Cherkov sudi Jannani "qaytgan bid'atchi" deb e'lon qildi - bu o'lim jazosi degani edi. 1431-yil 30-mayda, 19 yoshida, Janna Ruan bozoridagi maydonida olovda yoqib yuborildi. U yonishidan oldin kechirim so'radi, duo o'qidi va "Iso!" deb qichqirdi. Minglab odam tomosha qildi. Hatto ba'zi ingliz askarlari yig'lashgan - ular avliyoni o'ldirishganligini angladilar. Inglizlar Jannaning kulini Sena daryosiga tashladilar - ular uning jasadi muqaddasligi sifatida saqlanishidan qo'rqqanlar. Ammo ularning rejasi teskariga ish berdi - Janna shahid bo'ldi va uning xotirasi yanada kuchliroq bo'ldi.

Karl VII faqat 1456-yilda - Jannaning o'limidan 25 yil keyin - uning nomini oqlash uchun qayta sud ochdi. Bu sud Jannaning begunohligini e'lon qildi va

1431-yildagi sud noto'g'ri deb topildi. Ammo bu juda kech edi. 1909-yilda Papa Piy X Jannani "muborak" deb e'lon qildi va 1920-yilda Papa Benedikt XV uni avliyo deb e'lon qildi. Oddiy dehqon qizi cherkovning rasmiy avliyosiga aylandi. 1922-yilda Fransiya uni milliy bayram kunlaridan birining ramziga aylantirdi.[3].

Nima uchun bugungi kunda Janna d'Ark haqida bilish muhim? Birinchidan, u gender tengligining ramzi - ayollar ham erkaklar kabi jasorat, liderlik va harbiy qobiliyatga ega. Ikkinchidan, u jimlik saqlamasdan fransuz milliy birligiga hissa qo'shgan - uning qurbonligi Fransiyaning birlashtirdi. Uchinchidan, Jannaning sud jarayoni adolatsizlik va siyosiy manipulyatsiyaning yaqqol namunasi. U adolatsiz sudlangan va siyosiy sabablarga ko'ra o'ldirilgan. Bu sud tizimidagi nomustaqillikni zarurligini ko'rsatadi. To'rtinchidan, uning hayoti shaxsiy ishonch va jasorat haqida darslar beradi - hamma unga ishonmagan paytda ham, u o'z yo'lida davom etdi. Beshinchidan, Janna milliy qahramonlarning qanday yaratilishini ko'rsatdi. U hayotida xiyonatga uchradi, ammo o'limidan keyin avliyoga aylandi. Oltinchidan, uning hikoyasi inson tragediyasi va ulug'vorligini birlashtiradi - ajoyib yutuqlar va dahshatli oxir. Yettinchidan, Jannaning vahiylari va diniy tajribasi inson psixologiyasi va iymon tabiatining qiziqarli savolilarini ko'taradi. U haqiqatan ovozlarni eshitganmi? Psixologik hodisa edimi yoki haqiqiy vahiy? Bu savollar hali ham munozara qilinadi. Sakkizinchidan, uning 19 yillik qisqa hayoti shuni eslatadi - yoshlik hayotni emas, balki hayotning sifati muhim.

Janna d'Ark tarixda ko'plab filmlarga, kitoblarga, operalarga va rasmga ilhom berdi. Mark Tven uning hayoti va faoliyati haqida kitob yozgan, Bernard Shou pyesa yaratgan. Janna d'Ark - bu 19 yillik hayotda ajoyib voqealarni sig'dirgan, milliy qahramonga aylangan va 500 yil o'tgach avliyo deb e'lon qilingan oddiy dehqon qizi. Uning hayoti shuni o'rgatadiki, haqiqiy qahramonlik unvonlarda, boylikda yoki ta'limda emas, balki jasorat, ishonch va o'z xalqiga sadoqatda yotadi. "Orlean qizi" - bu nafaqat tarixiy shaxs, balki insoniy ruh va milliy birlikning abadiy ramzidir.[4].

Xulosa qiladigan bo'lsak, Janna d'Arkning merosi ulkan. Jumladan, u fransuz milliy o'zligini uyg'otdi. Unga qadar Fransiya parchalangan, umidsiz edi. Janna xalqqa ishontirdiki, ular g'alaba qozonishi mumkin. U ayollarning qobiliyatini ko'rsatdi - o'rta asrlar erkaklar dunyosida, oddiy qiz armiyani boshqardi va g'alabalarga erishdi.

Shuningdek, Jannaning hayoti inson iymonining kuchini ko'rsatadi. U vahiya ishondi va bu ishonch uni eng qiyin vazifalarni bajarishga undadi. Orlean qizi oddiy odamlarning buyuk ishlar qilishi mumkinligini isbotladi. U saroylik emas, olim emas, ritsarlar oilasidan emas edi - oddiy dehqon qizi, ammo tarixni o'zgartirdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- 1."Joan of Arc". Encyclopedia Britannica. 2013. London.
- 2."Joan of Arc: Her Trial and Rehabilitation." Journal of Medieval History. 2011. 10-20-b.
- 3.O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. Jahon tarixiy bo'limi. Toshkent. 2020. 232-b.
4. Mark Tven. Janna d'Ark haqida uning safdoshi va kotibi ser Lui de Kontning esdaliklari. (tarjimon: Rustam Komilov). Qaqnus Media. 2020. 480 b.
5. www.wikipedia.org. internet sayti.